

HUQUQIY ONG VA HUQUQI MADANIYATNING HUQUQIY TA'LIM VA TARBIYANING UZVIYLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Movlonov Baxromali Qodirovich

Farg'ona Davlat Universtiteti

Huquqshunoslik fakulteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321654>

Annotatsiya. Maqolada, huquqiy ta'lim va tarbiyani uzviyligini ta'minlashda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni roli o'rni va ahamiyatini, undagi mavjud shartli kamchiliklarni, huquqiy tarbiya va uni amalga oshirish shakllari va tizimi bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, shaxs, huquq va erkinliklar, huquqiy targ'ibot, huquqiy tashviqot, huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, barkamol avlod.

Аннотация. В статье освещены вопросы, связанные с ролью, местом и значением правового сознания и правовой культуры в обеспечении непрерывности правового образования и воспитания, существующими в данной сфере условными недостатками, а также с правовым воспитанием, формами и системой его реализации.

Ключевые слова: правовое образование, правовое воспитание, правосознание и правовая культура, личность, права и свободы, правовая пропаганда, правовая агитация, правовое демократическое государство, гражданское общество, гармонично развитое поколение.

Abstract. This article examines the role, place, and significance of legal consciousness and legal culture in ensuring the continuity and interconnection of legal education and upbringing. It also highlights existing shortcomings and challenges in this process, as well as issues related to the content of legal upbringing, its implementation forms, and its overall system.

Keywords: legal education, legal upbringing, legal consciousness and legal culture, individual, rights and freedoms, legal advocacy, legal awareness campaigning, democratic state governed by the rule of law, civil society, harmoniously developed generation.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari ta'minlash va har bir inson huquqlarini himoya qilishning amaliy kafolatlari tizimini yaratilganligidir. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim darajasining, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bevosita bog'liqdir.

Xuquqiy demokratik davlatning eng muhim belgilari bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash – bu islohotlarning o'zagini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirilayotgan bu boradagi savobli ishlar o'z natijasini berishi uchun yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lish, tarixga nisbatan daxldorlik hissini sezish va albatta konstitutsion burchni bajarishdek yuksak mas'uliyat talab qilinadi.

Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'i lozim.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatiga – Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobida to'xtalar ekan:

Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida halqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishi bilan birga, boshqaruv ma'murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo'nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi, deb alohida ta'kidlaydi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, unda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari sifatida aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish belgilab berildi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda istiqloq tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma'naviy salohiyati yangilangan Konstitutsiyamizda mafkuraviy poydevor sifatida o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyamiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo'lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining huquqiy ongi, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda².

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Chunonchi, uning 50-moddasida har kim ta'lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi, 51-moddada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqliligi, 52-moddada esa, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi mustahkamlandi³.

O'zbekiston mustaqil bo'lganidan to shu kungacha jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasida qancha bong urmaylik, huquqiy jixatdan tartibga solmaylik, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga yetarli darajada, kompleks yondashilyapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari talab darajada, yetarli emasligi – qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. So'nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba'zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog'ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi.

¹ Huquqiy madaniyat nazariyasi A. Saidov. U. Tadjixanov. T.: 2019-y.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2023 y

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2023 y

Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayotganligidan dalolat. Bu masala xali-xunuz, uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ta'lim muassasalarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan. Ochig'ini aytganda, targ'ibot tadbirlarida ko'pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo'lmoqda.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to'liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, fuqarolar ongida - Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir! degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi asosiy vazifalarimizdan biri bo'lmog'i lozim. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy tarbiyaga tenglasha olmaydi⁴.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda kundalik turmushda ko'p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini targ'ib qilish, shuningdek, huquqiy ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish, yoshlar va ota-onalar o'rtasida nikoh yoshi, aliment to'lash shartlari, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to'g'risida muntazam ravishda huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta'lim olish va boshqalar bo'yicha huquqiy axborotni buklet, flayer va plakatlar shaklida aholiga yetkazish, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og'ir bo'lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg'otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o'tkazish ko'lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etilgan muloxazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi ta'kidlanganidek, quyidagi qismlardan iboratligini ko'rsatadi:

1. Huquqiy tarbiya subyektlari: (davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mexnat jamoalari a'zolari, mansabdor shaxslar va raxbarlar);
2. Huquqiy tarbiya mazmuni: (huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot, huquqiy tashviqot)
3. Huquqiy tarbiya shakllari (ma'ruza, seminar, davra suhbatlari, viktorinalar, Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar va x.k. lar)

⁴ Huquqiy madaniyat nazariyasi A. Saidov. U. Tadjixanov. T.: 2019-y.

4. Huquqiy tarbiya usullari: (Ishontirish, rag'batlantirish, majburlash)

Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilash qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo'naltirilgan maqsadli chora tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz.

Zero, faqat erkin, o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o'z huquqlaridan to'laligicha foydalana oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" deyilgan.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini mustahkamlash, huquqiy mavzular bo'yicha ta'lim beruvchi pedagogo'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlash ko'lamini kengaytirish, bunda oiladagi mojaro va zo'ravonliklar hamda ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini kompleks tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo'nalish va vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish biz, huquqshunos va ziyolilardan mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2023 y
2. Yangi O'zbekiston strategiyasi Sh. Mirziyoyev T. 2021 y
3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini takomillashtirish to'grisidagi PF-5618. T.2019 y.
4. <https://www.uzembassy.uk/news/1166?language=uz>
5. Huquqiy madaniyat nazariyasi A. Saidov. U. Tadjixanov. T.2019 y.